

ADABIY TALAFFUZNING O'RNI VA UNING TUTGAN AHAMIYATI

Achilova Nasiba Saidovna

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti akademik litseyi, ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi
achilovanasiba63@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10545862>

Аннотация: В этой статье рассматривается роль литературного произношения и его значение.

Ключевые слова: культура речи, умение формировать у учащихся речевые навыки на должном уровне, формальная, научная и обыденная речь.

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy talaffuzning o'rni va uning tutgan ahamiyati borasida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Nutq madaniyati, o'quvchilarda nutqiy malakalarni kerakli darajada shakllantira olish, rasmiy, ilmiy va oddiy nutq.

Adabiy tildan foydalanish bugungi kunda dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Kundalik hayotimizda bu bilan bog'liq juda ko'p hodisalarga duch kelamiz. Imloviy savodxonlik borasidagi kamchiliklar ko'p yillardan buyon ko'zga tashlanadi. Biroq bugungi kunda eng katta muammo adabiy talaffuzdir. Adabiy til millatni birlashtiradi. Ming afsuski, davlat muasassalari hisoblangan bog'chalardan tortib, butun xalqni ortidan ergashtirayotgan, ma'rifat ulashayotgan televideniya va radio eshittirishlarda adabiy til qoidalari qo'pol ravishda buzilmoqda. "Davlat tili to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga deyarli rioya qilinmayapti. Ko'cha ko'yda, rasmiy tashkilotlarda savodsizlarcha yozilgan e'lolnarga, peshtaxtalarga ko'zingiz tushganda ensangiz qotadi.

Insonning kimligini uning kiyim boshi emas, nutq, muloqot madaniyatiga egaligi aytib turadi. Nutq madaniyati deganda ko'proq og'zaki nutq tushuniladi. Achinarli tomoni shundaki, qo'shiqlari, ko'rsatgan xizmatlari uchun el ardog'iga tushgan ayrim san'atkorlar, sport ustalari va boshqalar televideniya yoki radio orqali xalq bilan uchrashganda noadabiy qatlamga oid so'zlarni ishlatib, adabiy talaffuz qoidalarini oyoq osti qilmoqdalar. Nodavlat tele va radio studiya boshlovchilarining ma'lum hudud doirasigagina xos bo'lgan shevalardan bemalol foydalanayotgani davlat tili va uning qonunlarini mensimaslikdan o'zga narsa emas. Har bir kamera qarshisida o'tirgan tele va radio boshlovchi uni faqatgina mahalladoshlari, yaqin qarindoshlari emas, butun respublika, xalq eshitayotganligini, ko'rayotganligini unutib qo'yadimimikin? Adabiy tilgina barchaga tushunarli bo'lishini, adabiy talaffuzgina hammaga birdek yoqishini bilmasa kerak. Aks holda mamlakat aholisining nafratini qo'zg'ab, ensasini qotirib o'tirmas edi. Bu borada Birinchi Prezident I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" nomli asarida alohida to'xtalib, ayni vaqtda jamiyatimizda til madaniyatini oshirish borasida hali ko'p ishlar

qilishimiz lozimligini ham unutmasligimiz zarurligini, ayniqsa, ba'zan rasmiy muloqlarda ham adabiy til qoidalariga rioya qilmaslik, faqat ma'lum bir hudud doirasida ishlatalidigan sheva elementlarini qo'shib gapirish hollari uchrab turishi bu masalalarining hali hanuz dolzarb bo'lib qolayotganligini ta'kidlaydilar.

Ma'lumki tildan barcha vaziyatlarda bir xilda foydalanilmaydi. Undan nutq vaziyatiga mos ravishda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu o'rinda ta'lim muassasalarining, jumladan, umumta'lim maktablarining alohida o'rni borligini ta'kidlash lozim. Yuqorida qayta-qayta tilga olinayotgan dolzarb muammoning yechilish o'rninga jiddiy tus olishiga aynan maktab o'qituvchilari aybdor, desak xato bo'lmaydi. Ona tili darslari o'quvchilarda nutqiy malakalarni kerakli darajada shakllantira olishi zarur. Har bir o'quvchi o'z ona tilidan o'ta mohirlik bilan foydalana olishi, istalgan muloqot vaziyatiga mos (rasmiy, ilmiy va oddiy nutq vaziyati bo'lsin) o'z fikrini jozibali, ta'sirchan ifodalay olishi kerak. Umumta'lim maktablari bu borada qanday natijalarga erishayotgani barchamizga ma'lum. To'g'ri, barcha maktab o'quvchilarini, shu jumladan, o'qituvchilarini ham no'noqlikda, mas'uliyatsizlikda ayblab bo'lmaydi. Biroq aksariyat o'qituvchilarning o'z nutqiy kamchiliklari ustida ishlasligi, eng asosiysi, adabiy talaffuz ko'nikmasiga ega emasligi, imloviy, grammatic jihatdan savodxon emasligi ming-minglab o'quvchilarning jamiyatda o'z o'rinarini topaolmasligiga sabab bo'lmoqda. O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalari muayyan ixtisoslikka yo'naltiradi. Umumta'lim maktabida esa muntazam ona tili darslari orqali o'quvchilar tildan mohirona foydalanish malakalariga ega bo'ladilar. Demoqchimizki, adabiy talaffuz ko'nikmalari maktabda shakllanadi. Respublikamizning turli hududlarida o'tilayotgan darslarning asosiy qismi o'qituvchining layoqatsizligi (buni vijdonsizlik deb ham atash mumkin) tufayli adabiy til, qolaversa, davlat tili haqidagi qonunga xilofdir. Ta'limning jadal rivojlanishiga matbuot, ayniqsa, televideniyaning ko'magi juda zarur bo'lgan bir paytda ularning o'zlarini ham tanqidbop va tahrirtalab bo'lib turibdi. Adabiy talaffuz masalasi, avvalo, har bir kishining shaxsiy muammozi bo'lib, u so'zlovchi tomonidan bartaraf etilmasdan muloqotga kirishilganda ijtimoiy maqomga ega bo'ladi. Davlatning, jamiyatning talablariga, ehtiyojiga mos bo'limgan mutaxasis o'z o'rniga ega bo'lmaydi. Adabiy talaffuz, go'zal nutq madaniyatiga ega bo'lgan xodim har qanday vaziyatda boshqalardan ustun bo'ladi. Eng asosiy sabablardan yana biri tilning fonetika orfoepiya bo'limlari ilmiy jihatdan ham, metodik jihatdan ham alohida o'r ganilgan emas. Universitetlarning filologiya fakultetlarida, asosan, ona tili va adabiyot o'qituvchilari yetishib chiqayotgan bo'lsada, bo'lajak o'qituvchilarning nutqi, talaffuzi ustida maxsus ishlanmaydi. Bitiruvchilar o'z nutqiy nuqsonlari bilan umumta'lim maktablariga, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarga ishlab chiqarishga jalb qilinadilar. Yana qaysi tuman bo'lsa, o'sha hudud shevasida darslar davom etaveradi. Nutq madaniyati masalasi muammoligicha qolib ketaveradi.

Tan olish kerakki, boshlang'ich ta'lim o'z vazifasini qoniqarli tarzda bajarmoqda. Bizning asosiy muammomiz 5-9-sinf o'quvchilari. Manashu davrda o'quvchilar bilan nutqiy malakalarni shakllantirish ustida jiddiy ishslash kerak bo'ladi. Adabiy talaffuzga o'rgatishga kelsa, respublikamizning turli hududlari bilan bo'liq turli tovushlar talaffuzida muammolar uchraydi. Kishi nutqida birgina unli yoki undosh tovushni, yoxud birgina so'zni noro'g'ri talaffuz qilsa ham uning nutqi buzuladi. Endi Samarqand, Buxoro,

Surxondaryo viloyatlarining ayrim hududlarida o‘unlisining talaffuzida kamchilik bor. Ona tili darslarida xuddi biror chet tilini o‘rgangandek, avvalo muammoli tovushlar ustida jiddiy ishlash kerak bo‘ladi. Bu o‘rinda talaffuz holati aks etgan oksilografik rasmlardan (ayrimlari qiyosiy bo‘ladi), asosan, maxsus fonetik mashqlardan unumli foydalanish samara beradi. Adabiy talaffuzga o‘rgatishning eng samarali yo‘li o‘qituvchining o‘zi tanlangan matnni qayta-qayta o‘qib yoki yoddan aytib berishidir, ammo bu usuldan to‘la foydalana olmaymiz chunki, aksariyat ona tili o‘qituvchilarimizning talaffuzi talabga javob bermaydi. Bunday holatda o‘qituvchi nima qilishi lozim? Yozma nutqni tasdiqlangan imlo qoidalari (kitob shaklida mavjud) asosida o‘rgatish mumkin. Og‘zaki nutqni qaysi mezonlar asosida o‘rgatish mumkin degan savol tugulishi tabiiy. Adabiy til, adabiy talaffuz ko‘p yillar davomida shakllanadi, sayqallanadi. Oddiy so‘zlashuv nutqining qancha sheva mavjud bo‘lsa shuncha varianti mavjud. Ammo adabiy tilning, davlatning rasmiy tilining yagona talaffuz varianti mavjud bo‘lib, xizmat vazifasidagi barcha shaxslar shu tilda so‘zlashadi. Mamlakat miqyosida adabiy talaffuz ko‘nikmalarining shakllanishida davlat telekanallari suhandonlari, xususan, information dasturlarining boshlovchilari; ayniqsa, dublyaj ustalarning talaffuzi, muloqot madaniyati barchamiz uchun etalon vazifasini bajaradi. O‘qituvchilar, nomlari keltirilgan notiqlarning ovozlari yozilgan magnit tasmalardan darslarda maxsus foydalanishi lozim. O‘quvchilarga talaffuz bo‘yicha, ifodali o‘qish yuzasidan mustaqil topshiriq berilganda, maxsus tavsiya qilingan tele va radio dasturlarni tinglashga yo‘naltirilsa, har tomonlama foydalidir. Umumta’lim maktab, akademik litsey o‘quvchilari uchun talaffuz va imloga doir ko‘nikmalarni jadal shakllantiruvchi metodik tavsiyalar, uslubiy qo‘lanmalar tayyorlandi. O‘zbek filologiya fakulteti talabalari uchun “O‘zbek tilining amaliy fonetikasi” fani bo‘lajak ona tili o‘qituvchilarning talaffuz va og‘zaki nutq bilan bo‘liq malakalarini shakllantirish maqsadida tanlanma fan sifatida tashkil qilinishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Jalolov J.J. Chet tili o‘qitish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1996.159-b.
2. A. G‘ulomov, H. Ne’matov Ona tili ta’limi mazmuni. –T.: O‘qituvchi, 1995. 98-b